

RAYHON O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TIBBIYOTDAGI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Siddiqova Yulduz Husanovna

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti

Ergasheva Dilnoza Abduhakimovna

Samarqand davlat universiteti urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 113-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada rayhon o'simligini tabiatdagi roli, organizmlar hayotidagi va inson hayotidagi ahamiyati, hamda o'simliklar olamidagi o'rni va tarqalishi haqidagi ma'lumotlarni keltirilgan. Undan tashqari rayhon o'simligining dorivorlik xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oddiy rayhon, ocimum basilicum, efir moyi, ekish muddati, yirik bargi, sabzavotlar, foydali xususiyati, vitaminlar, oqsil, uglevod

Аннотация

В этой статье представлена информация о роли базилика в природе его значение в жизни организмов и в жизни человека а также о его месте и распространении в мире растений. Помимо этого, описаны лечебные свойства базилика.

Ключевые слова: Базилик, ocimum basilicum, эфирное масло, период посадки, крупный лист, овощи, полезные свойства, витамины, белок, углеводы

Abstract

This article presents information about the role of the raikon plant in medicine, its importance in the life of organisms and in human life and its place in the world of plants, and its distribution besides him, the medicinal properties of the raikon plant are presented.

Keywords: Basil, ocimum basilicum, essential oil, planting date, large leaf, vegetables, beneficial properties, vitamins, protein, carbohydrates.

Mamlakatimizda sabzavotchilik qishloq xo'jaligining tobora rivojlanib borayotgan sarmahsul sohasi bo'lsada, ammo sabzavot ekinlari chegaralangan bo'lib, Respublikamizda iste'mol assortimenti bizda chiqarilayotgan sabzavot ekinlarining soni 20 tadan oshmaydi va uning katta qismini ya'ni 84-86% foizini piyoz, sabzi, karam, pomidor, bodring kabi sabzavotlar tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, xalqimiz uchun yangi noan'anaviy va kam tarqalgan sabzavot ekinlarini iqlimlashtirish, yangi nav va duragaylarini yaratish, yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish zarur. Shunday ekinlardan biri bu oddiy rayhondir. Rayhonni qadimgi yunonlar yaxshi bilishgan. Rayhon-qadimgi yunoncha "monarx" so'zidan olingan bo'lib, Yunonistonda faqat monarx rayhonini yig'ish mumkin bo'lgan va xushbo'y poyalarni faqat oltin o'roq bilan kesishgan. Bugungi kunda Hindiston, Janubiy Afrika, Shri Lanka, Gruziya va Rossiya Federatsiyasining Krasnodar o'lkasida bir yillik ekin sifatida keng tarqalgan.

Rayhon so'zi ko'hna arab tilida uni "vujudi xushbo'y" fors tilida esa "isfaran" deb atalgan bo'lib, u "doimiy quvonch" manosini anglatgan. Abu Ali ibn Sino rayhon ustida to'xtalib: "uni yanchib yoki moyini olib, malham qilib bavo silga surtilsa foyda qiladi", deydi. Ibn Sino qora rayhondan foydali foydalanilsa, ya'ni surtmasi ko'zning lo'qqillashiga foyda qilishi, yurakni kuchli qilishi, suvi qon tuflashga foyda qilishi, sutni ko'paytirishi, ichni to'xtatishi, siydik ajralishini ko'paytirishi, urug'l qiynalib siyishda foyda qilishini ko'rsatib o'tgan. Oshrayhon shifobaxshlik bobida beqiyos xususiyatlarga ega. O'simlik kishi ishtahasini ochadi, ovqatni yaxshi hazm qiladi hamda a'zolarga yaxshi singishiga yordam beradi. Rayhon tarkibidagi efir moylari surunkali me'da yallig'lanishining oldini oladi. Shu bilan birga rayhonni siydik yo'li kasalliklarini davolash uchun tavsiya qilinishi mumkin. Bundan tashqari rayhon yo'talga, qizamiq asorati bo'lganlarga yengillik beradi.

Bolgar xalq meditsinasida rayhon asosida tayyorlangan qaynoq damlama bilan buyrak, qovuq, siydik yo'llari shamollashida, tumov, angina, bezgak hurujidan forig' etuvchi va davolovchi omil sifatida foydalaniladi. Xalqimiz rayhonni azal-azaldan sevib iste'mol qiladi. Ovqatlarga, choylarga shifobaxsh ko'kat sifatida ishlatib keladi. Hovlilarga ekib, quloqqa taqib olishadi. Albatta, bu bejiz emas. Darhaqiqat u havoni va odam vujudini yuqumli kasallik tarqatuvchi mikroblardan va infeksiyalardan tozalaydi. Shuning uchun ham uni Jannat guli deb e'zozlashadi. Tomoq og'rig'ida 4 qoshiq maydalangan rayhon bargini 250 ml qaynagan suvga solib 20 daqiqa qaynatib, sovugach suzib olib, kun davomida 2-3 marta iliq holda tomog'ingizni chaying.

Qovoqlar shamollaganda: 2 qoshiq maydalangan rayhon barglarini 500ml qaynagan suvga soling va sovutib suzgichdan o'tkazing. Malhamga dokani botirib qovoqlaringiz ustiga qo'ying.

Rayhonning botanik xususiyatlari: Bargi yirik, tuxumsimon, gullari oq yoki pushti, poya va novdalari ichida boshhoqsimon to'pgulga yig'ilgan. Bargining rangi va o'simlik shakliga qarab oq rayhon, osh rayhon, sada rayhon, qora rayhon, hoji rayhon kabi xillarga bo'linadi.

Rayhon barglarini qurutib qishga asrash uchun o'simlik ayni gurkirab gullash oldidan ustki barglari chilpib olinadida savatchaga taxlanadi, so'ngra uni pana ammo havo yetarli bo'lgan joylarda quritiladi. Bosh og'rig'ida: Rayhon, mavrak, limono'zni teng miqdorda olib, 1 choy qoshigini 200ml qaynagan suvda 20 daqiqa damlang va suzib olgach, 1 choy qoshiq asal bilan aralashtirib iching. Ushbu sharbat tinchlantirish xususiyatiga ham ega. Rayhon, sirka va ozroq miqdordagi tuz aralashmasining qaynatmasi tish og'rig'ini qoldiradi. Rayhon barglarining sharbati quloq yiringlashida foyda beradi.

Bolgar meditsinasida davolash amali quydagicha: 2 choy qoshiq maydalangan rayhon bir yoki ikki stakan qaynoq suvga damlanadi. Bu bemor uchun kunlik norma hisoblanadi. Uni ekzema va yaralarni tuzatishda tavsiya etiladi. O'zbek oshxonasida rayhon oshko'k va ziravor sifatida ham qadrlanadi. Jumladan: rayhon bilan go'shtli, yog'li masalliq'larga ta'm berishda, sabzavot va rezavorlarni konservalashda foydalaniladi. Rayhonning yana ajoyib xususiyatlaridan biri meva qoqilarini zararli xasharotlar ta'siridan asrash hisoblanadi.

Rayhon O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekib ostiriladi. Undan yuqori xom-ashyo yetishtirish Uchun barcha agrotexnik chora-tadbirlari orasida yerni sifatli qilib ishlash asosiy ahamiyatga ega. Chunki yer tog'ri ishlanganda, rayhon ekiladigan tuproqlarning fizik, kimyoviy va biologik xossalari yaxshilanadi. Uning ildiz tizimini rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Rayhon ekiladigan yerlar unumdor fizik xossalari motadil, shorlanmagan va nami etarli bolishi kerak. Rayhon ekiladigan yerlar asosan begona o'tlardan toza bo'lishi shart. Yerlarni kuzda haydashdan oldin gektar hisobiga 15-20 tonna chirigan mahalliy og'it va fosfor o'gitining yillik normasini 70% ni, ya'ni 40-50 kg dan kirgizib, 25-27sm chuqurlikda haydab qo'yiladi. Rayhon urug'ini parniklarga sepib, 40-45 kundan keyin erta

bahorda haydalgan yerlar tekislanib, borona va mola bostirib tuprog harorati (10-12 sm gatlamda) 15-17°S bo'lganda uning kochatari 70x70 sm qilib mexanizmlar yordamida yoki qo'lda ekiladi. Har bir uyaga 2 tadan o'simlik qoldiriladi va tez-tez sug'orilib turiladi. Rayhon osimligini begona otlar qoplab ketmasligi uchun uni tozalab turish maqsadga muvofiq boladi. Vegetatsiya davomida 12-13 marta sug'oriladi va 4-5 marta kultivatsiya qilinadi. Kultivatorlar yordamida yumshatiladi. Rayhon mineral va organik o'gitlarga juda talabchan ekin hisoblanadi. Uning yaxshi o'sishi, rivojlanishi va ko'proq ko'k massa yetishtirishda o'g'itlash tizimini to'g'ri belgilash lozim boladi. Rayhonni shonalash va gullash fazalarida azotli, fosforli va kaliyli o'gitlar bilan oziqlantiriladi va gektar hisobiga 90 kg azot, 80 kg fosfor va 50 kg kaliy o'giti beriladi. Har bir oziqlantirish sugorishdan oldin amalga oshiriladi. Oddiy rayhon mineral o'gitlarni qo'llashga juda sezgir. Azotli o'gitlar mavjud bo'lganda, yer usti massasining hosildorligi oshadi. Fosfor va kaliy efir moyining sifatini yaxshilaydi va urug'larning shakllanishi va pishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda rayhonni 2 muddatda bahorgi va kuzgi muddatlarda ekish mumkin. Yopiq maydonlarda esa yil bo'yi o'stirsa bo'ladi. Rayhon o'simligini begona o'tlar qoplab ketmasligi uchun uni tozalab turish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu o'simlik asrlar davomida xalq tabobatida xushbo'y oshpazlik o'ti va dori sifatida ishlatilgan. Yangi va quritilgan barglar yoqimli ta'mi va xushbo'yligi tufayli salatlar, makaron, sho'rvalar va dengiz mahsulotlari kabi ko'plab taomlarda xushbo'y moddalar sifatida keng qo'llaniladi Oddiy rayhon bioaktiv fitokimyoviy moddalar, ayniqsa efir moylari va fenolli birikmalarning boy manbaidir.

Xususan, yashil massasi tarkibida 0,3% gacha efir moyi saqlaydi. Rayhon an'anaviy tibbiyotda bosh og'rig'i, yo'tal, ovqat hazm qilish, yurak-qon tomir va siydik tizimi kasalliklarida qo'llaniladi. Rayhon tarkibida oqsillar, uglevodlar, yog'lar, kaliy, fosfor, kalsiy, magniy, temir, rux moddalari, C, B₁, B₂, B₆, B₁₂, PP, E vitaminlari, rozmarin kislotasi mavjudligi aniqlangan. O'simlik tarkibidagi fenolli birikmalar va flavonoidlar oziq-ovqatning organoleptik xususiyatlariga kuchli ta'sir qilishdan tashqari, antioksidant, antimikrobial va antifungal ta'sir ko'rsatish xususiyatigaham ega. Bundan tashqari, bu ot va undan olingan mahsulotlar farmatsiya, kosmetika, parfyumeriya va oziq-ovqat qo'shimchalarini ishlab chiqarish kabi turli sanoat tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. Uning chiroyli ko'rinishga ega va rang-barang xillaridan dekorativ o'simlik sifatida ham foydalanish mumkin.

Rayhonni haqli ravishda xonaki dori-darmonlar manbai deb atash mumkin. Agar u gultuvakda xonangiz derazasida o'sayotgan bo'lsa, infeksiya va turli shamollash kasalliklaridan himoyangiz ta'minlangan deb hisoblash mumkin. Viruslarga, infeksiyalarga va mikroblarga qarshi kurashuvchanlik xossalari tufayli, u tabiiy antibiotic vosita deb tan olingan. Bu tabiiy shifobaxsh vosita kishi og'iz bo'shlig'ida mavjud bo'lgan mikroblarning 99 foizini yo'q qilish xususiyatiga ega. U tishlarda yig'ilgan tosh, kariyesga qarshi kurashuvchan, sinalgan vositadir. Uning qaynatma va damlamasi milklarni ham mustahkamlaydi.

Foydali xususiyatlari: Bu o'simlik asrlar davomida xalq tabobatida xushbo'y oshpazlik o'ti va dori sifatida ishlatilgan. Yangi va quritilgan barglar yoqimli ta'mi va xushbo'yligi tufayli salatlar, makaron, sho'rvalar va dengiz mahsulotlari kabi ko'plab taomlarda xushbo'y moddalar sifatida keng qo'llaniladi Oddiy rayhon bioaktiv fitokimyoviy moddalar, ayniqsa efir moylari va fenolli birikmalarning boy manbaidir. Bundan tashqari, bu o't va undan olingan mahsulotlar farmatsiya, kosmetika, parfyumeriya va oziq-ovqat qo'shimchalarini ishlab chiqarish kabi turli sanoat tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda.

Uning chiroyli ko'rinishga ega va rang-barang xillaridan dekorativ o'simlik sifatida ham foydalanish mumkin. Oddiy rayhon (*Ocimum basilicum*) labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasining bir yillik, ziravor, dorivor va manzarali vakili. O'zbekistonda manzarali, ziravor va oshko'k sifatida ekib o'stiriladi. Bo'yi 25-40 sm. gacha bo'lib may- oktabr oylarida gullab, urug' hosil qiladi. Urug'lari erta bahorda

ko'chatxonalrga sepiladi. Urug'lar 12-15 °C haroratda unib chiqa boshlaydi. Nihollar uchun optimal harorat 20-25 °C deb hisoblanadi va bu vaqtda ko'chatlar 9-14 kunda paydo bo'ladi. Issiqlikka, namlikka va yorug'likka talabchan, qurg'oqchilikka chidamli o'simlik. Hosildorligi gektaridan 40-80 s ko'k masasa olinib, urug'lari unuvchanligini 4-5 yilgacha saqlaydi. Barglari tuxumsimon, rang intensivligi yashildan och binafshagacha o'zgaradi. Barg rangi va o'simlik shakliga qarab oq rayhon, sada rayhon, qora rayhon, osh rayhon, hoji rayhon kabi xillarga bo'linadi. 300 dan ortiq navlari bor. Oddiy rayhon mineral o'g'itlarni qo'llashga juda sezgir. Azotli o'g'itlar mavjud bo'lganda, yer usti massasining hosildorligi oshadi. Fosfor va kaliy efir moyining sifatini yaxshilaydi va urug'larning shakllanishi va pishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, biz o'rganayotgan oddiy rayhon o'simligi O'zbekiston yetishirilayotgan sabzavot o'simliklari turini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O'zbekiston sharoitida rayhon o'simligi nav namunalari to'plamini o'rganish, ulardan istiqbolli navlarini ajratish, bahoriy va kuzgi mavsumda maqbul ekish muddatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'. Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M. Yulchiyeva, D.Mustafakulov Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent-2020.
2. Xolmatov H.X., Habibov Z.H., Farmakognoziya (Darslik), T., 1967;
3. Nabiyeu M, Shifobaxsh giyohlar, T., 1980; Hojimatov Q., Olloyorov M. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
4. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;
5. Hojimatov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;
6. Murodhodjayev Yu.M. Kultura lekarstvennix rasteniy v O'zbekistane, T.